

УЗД
342/575,1
К 25



Islom KARIMOV

ASOSIY VAZIFAMIZ – JAMIYATIMIZNI
ISLOH ETISH VA DEMOKRATLASHTIRISH,
MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIYA
QILISH JARAYONLARINI YANGI BOSQICHGA
KO'TARISHDAN IBORAT




Islom KARIMOV

**ASOSIY VAZIFAMIZ – JAMIYATIMIZNI
ISLOH ETISH VA DEMOKRATLASHTIRISH,
MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIYA
QILISH JARAYONLARINI YANGI BOSQICHGA
KO'TARISHDAN IBORAT**

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining
23 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruba*

2015-yil 5-dekabr



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2015

UO'K: 323.(575.1)

KBK 66.3(50')

K 25

Karimov, Islom Abdug‘aniyevich

K 25

Asosiy vazifamiz – jamiyatimizni isloh etish va demokratlashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasи qabul qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza / I.A. Karimov. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2015. – 40 b.

ISBN 978-9943-28-524-8

UO'K: 323.(575.1)

KBK 66.3(50')

ISBN 978-9943-28-524-8

© «O‘ZBEKISTON» NMIU, 2015

**ASOSIY VAZIFAMIZ – JAMIYATIMIZNI
ISLOH ETISH VA DEMOKRATLASHTIRISH,
MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIYA
QILISH JARAYONLARINI YANGI
BOSQICHGA KO'TARISHDAN IBORAT**

Aziz vatandoshlar!

Xonimlar va janoblar!

Har yili Konstitutsiya kunini nishonlash arafasida siz, azizlar bilan mana shu go‘zal va muhtasham «O‘zbekiston» anjumanlar saroyida uchrashish yaxshi an'anaga aylanib qoldi.

Shu fursatdan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 23 yillik bayrami bilan sizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni samimiy tabriklash, barchangizga chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etishni o‘zim uchun yuksak sharaf, deb bilaman.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mamlakatimizning Asosiy qonuni – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bugungi kunda hayotimizda qanday ulkan, hal qiluvchi o‘rin tutayotgani haqida ortiqcha gapirishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Hayotimiz qomusi bo‘lmish Konstitutsiyamizni yuksak qadrlashimizning sababi avvalo uning kommunistik mafkura asosiga qurilgan eski ma’muriy-buyruqbozlik va taqsimot usulidan, mustabid tuzumdan butunlay voz kechganimizni e’lon qilib, biz uchun yangi davlat va jamiyat qurishning eng muhim prinsip va maqsadlarini, vazifa va normalarini belgilab berganida, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Chindan ham, O‘zbekiston sobiq ittifoq tarkibida asosan paxta xomashyosi yetkazib beradigan, salohiyati past, aholisining hayot darajasi eng qoloq respublikalardan biri bo‘lib, tarixan qisqa davrda barqaror sur’atlar bilan o‘sib borayotgan, ko‘p qirrali iqtisodiyotga ega bo‘lgan zamонави davlatga aylangani barcha-barcha kuzatuvchilarni hayratda qoldirishi bugun obyektiv holatdir.

Konstitutsiyamiz bugungi kunda yurtimizda mustaqil, suveren demokratik davlat barpo etish, ko‘p ukladli bozor iqtisodiyoti tarkibida xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlash va uning himoyasini kafolatlash, shuningdek, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblangan fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy huquqiy va qonunchilik poydevoriga aylandi.

Konstitutsiya va uning asosida yaratilgan qonunchilik bazi, shuningdek, 2010-yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi, 2011 va 2014-yillarda Bosh qomusimizga kiritilgan tuzatishlar jamiyatimizni isloh etish, demokratlashtirish va liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalgaloshirish bo‘yicha puxta o‘ylangan, uzoq muddatga mo‘ljallangan, dunyoda taraqqiyotning «o‘zbek modeli» deb tan olin-gan dastur asosini tashkil etdi. Ayni shu model zamonaviy, jadal va barqaror rivojlanib borayotgan davlatning shakllanishiда mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi, desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Hozirgi kunda jahon miqyosidagi ulkan sinov va mashaqqatlar, og‘ir muammolarga, global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning hali-beri davom etayotgani, tayyor mahsulotlar va asosan xomashyo resurslariga bo‘lgan talabning keskin pasayib borayotganiga qaramasdan, yurtimizda iqtisodiyotning izchil va barqaror o‘sish sur’atlari ta’minlanmoqda.

Bu borada ba’zi bir misollarni keltirib o‘tmoqchiman.

Dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida O‘zbekistonda mustaqil taraqqiyot yillarida iqtisodiyot qariyb 6 barobar, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real daromadlar 9 barobardan ziyod o‘sdi.

Keyingi 11 yilda, jumladan, joriy 2015-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’atlari barqaror ravishda 8 foizdan

yuqori bo‘lib kelmoqda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar mutanosibligi, davlat budjeti va to‘lov balansining barqaror ravishda profitsit bilan bajarilishi, eksport va oltin-valuta zaxiralarining o‘sishi ta’milanganmoqda. Davlatning tashqi qarzi esa yalpi ichki mahsulotga nisbatan 18,5 foizdan oshmayapti.

Joriy yilda iqtisodiyotimizga qariyb 16 milliard dollar qiyamatidagi investitsiya kiritildi va bu asosiy fondlar umumiy hajmining salkam 23,3 foizini tashkil etadi.

Keyingi 5 yil davomida iqtisodiyotimizga jami bo‘lib qariyb 67 milliard dollar investitsiya yo‘naltirildi, buning 21 foizdan ortig‘i xorijiy investitsiyalardir.

Buning natijasida mamlakatimiz, shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib bormoqda, ishlab chiqarish va sanoat jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda, uning tarkibi tubdan yangilanmoqda, yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaliviy korxonalar ishga tushirilib, ishlab chiqarish modernizatsiya va diversifikatsiya qilinmoqda, iqtisodiyotimizning raqobatdoshligi oshmoqda.

Bugun biz O‘zbekistonimizda barpo etilayotgan eng zamonaliviy, ulkan va noyob sanoat obyektlari bilan har tomonlama faxrlanishga haqlimiz. Ayniqsa, Surg‘il koni negizida qiymati 4 milliard dollardan ziyod bo‘lgan Ustyurt gazkimyo majmuasi kabi obyektlarning foydalanishga topshirilayotgani, «Jeneral motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda avtomobil dvigatellari ishlab chiqarilayotgani, «MAN» kompaniyasi ishtirokida Samarqand viloyatida yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi kompleks tashkil etilgani, shuningdek, Yaponianing «Isuzu» kompaniyasi bilan birgalikda avtobuslar ishlab chiqarilayotgani, «Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi» mas’uliyati cheklangan jamiyati bazasida «Damas» va «Orlando» yengil avtomobillari ishlab chiqarish o‘zlashtirilganini alohida ta’kidlash o‘rnlidir.

O‘ylaymanki, bunday yuksak yutuq va marralar hamma-mizni, har bir yurtdoshimizni quvontiradi.

Shular qatorida Jizzax viloyatida 760 ming tonna port-landsement yoki 350 ming tonna oq sement ishlab chiqaradigan zavod barpo etilgani, temiryo‘l magistrallarining elektrlashtirilayotgani, yuqori tezlikda harakat qiladigan «Talgo-250» yo‘lovchi poyezdlari xarid qilinib, Toshkent – Samarqand va Toshkent – Qarshi yo‘nalishlari bo‘yicha ularning harakati yo‘lga qo‘yilgani va shular singari boshqa yutuqlarimiz barchamizga g‘urur va iftixor yetkazishi mu-qarrar.

Nasib etsa, yangi yilda bu tezyurar poyezdlarning Toshkent – Buxoro yo‘nalishi bo‘yicha qatnovi yo‘lga qo‘yiladi.

Yangi korxonalarni ishga tushirish va faoliyat ko‘rsatayotgan obyektlarni modernizatsiya qilish, kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni jadal rivojlantirish hisobidan yurtimizda faqat oxirgi 5 yilning o‘zida 5 millionga yaqin yangi ish o‘rni yaratilgani biz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan masalani yechishda katta amaliy qadam bo‘ldi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarning hal qiluvchi omili haqida gapirganda, avvalo **odamlarimizning ong-u tafakkurida ro‘y berayotgan tub o‘zgarishlar, ularning yon-atrofdagi voqealarga munosabati, daxldorlik hissi, siyosiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi tobora o‘sib borayotganini ta’kidlash lozim.**

Shu borada, hech shubhasiz, o‘z vaqtida, ya’ni bundan 18 yil oldin Kadrlar tayyorlash va shuningdek, Maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturlarini qabul qilganimiz, ta’lim-tarbiya sohasida eski qolip va asoratlardan xoli bo‘lgan, bugun o‘zgalarning havasini tortayotgan yangi tizimni hayotimizda tafbiq etganimiz haqiqatan ham tarixiy bir voqeа bo‘ldi, desak, adashmagan bo‘lamiz.

O'tgan davrda biz amalga oshirgan katta-katta loyihalar orasida, hech shubhasiz, ana shu dasturlarimiz, ya'ni ta'limgarbiya masalasini kun tartibiga qat'iy qilib qo'yganimiz eng muhim ishlarimizdan biri bo'lди. Nega deganda, agar o'z vaqtida bu masalaning yechimini topmasak, biz bugungi kunda hech narsaga erishmagan bo'lardik. Mayli, zarur qonunlarni qabul qilishimiz, yangi-yangi texnologiya va investitsiyalarni olib kelishimiz, yangi zavodlar qurishimiz mumkin edi, lekin xalqimiz asrlar davomida intilib yashagan, erkin va farovon hayot barpo etish haqidagi orzu-niyatlarni bugun kim, qanday kuch ro'yobga chiqarar edi? Zamonaviy bilim va kasbhunarlarini egallaydigan, yangicha fikrlaydigan, Vatanni sevadigan, uni himoya qiladigan kuch kim bo'lardi, kim bunday ulug' ishni o'z zimmasiga olar edi?

Albatta, bu borada ertangi kunni o'ylab qo'ygan qadamlarimizni, boshlagan olijanob ishlarimizni davom ettirish va bugungi marralarga yetib kelish oson bo'lmadi. Bu haqda gapirganda, avvalambor, ta'limgarbiya sohasining butun yukini, og'irligini o'z yelkasida ko'tarib kelayotgan, mana shunday ezgu ishga eng katta hissa qo'shgan muhtaram o'qituvchi va murabbiylarimizga, 18 yil mobaynida o'zini ko'z-ko'z qilmasdan, mashaqqatli mehnati bilan amalda ayni shu yo'nalishdagi islohotlarni joriy etib kelayotgan aziz ustozlarimizga, ayniqsa, ayollarimizga butun xalqimiz nomidan rahmat aytishni o'zimning burchim deb bilaman.

Ana shunday olijanob insonlarning o'z ishiga fidoyiligi natijasida **mustaqil va yangicha fikrlaydigan, zamon tabulariga javob beradigan, navqiron avlodni shakllantirishga erishdik va bugun Vatanimizning ertangi kunini, taqdirini o'z qo'liga olishga qodir bo'lgan farzandlarimiz minbarga chiqmoqda.**

O'zingiz aytинг, aziz do'stlarim, shuning o'zi kelgusi hayotimizning eng mustahkam poydevori emasmi?!

Qadrli vatandoshlar!

Yangi – 2016-yil va kelgusi yillar amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va ularning samarasini kuchaytirishda yanada yuksak bosqich bo‘ladi, deb aytishga to‘la asosimiz bor.

Bu o‘rinda gap iqtisodiyotda sifat jihatdan tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, xususiy mulk va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, bu soha vakillarining manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, chet ellik sheriklar albatta aksiyadorlari bo‘ladigan yangi korporativ tashkilotlarni shakllantirish, mamlakatimiz iqtisodiyotida davlat ulushini qisqartirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni yanada keng jalb qilish va buning uchun barcha zarur sharoit va preferensiyalarni yaratish haqida bormoqda.

Bu vazifalarning prinsipial jihatdan yangiligi va ularning so‘zsiz amalga oshirilishi mamlakatimizni isloh etish va yangilash bo‘yicha navbatdagi bosqichning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Shuni aytish kerakki, bu yo‘lda bizning oldimizda turgan asosiy vazifamiz – boshlagan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazish, eskicha qarashlardan, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan boshqaruva usullaridan butunlay voz kechishdir.

Ta’kidlash zarurki, bugungi kunda bu masalalarga alohida e’tibor berilmoqda.

Buning tasdig‘i sifatida shu yilning 5-6-noyabr kunlari Toshkent shahrida o‘tkazilgan Xalqaro investitsiya forumini esga olishimiz o‘rinli bo‘ladi. Ushbu anjumanda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarga xorijiy investorlarning ishonchi tobora ortib borayotgani yaqqol namoyon bo‘ldi. Unda dunyoning rivojlangan 33 ta davlatidan nufuzli firma va kompaniyalarning 560 dan ziyod vakili, shuningdek, yetakchi xalqaro moliya institutlari rahbarlari ishtiroy etdi. Forum yakuni

bo'yicha umumiy qiymati 12 milliard dollardan ziyod investitsiya bitimlari imzolandi.

Men bu yutuq va marralar barchamizning yutug'imiz, deb hisoblayman. Albatta, ana shunday yuksak darajaga ko'tarilganimiz hammamizni quvontiradi. Lekin biz bugun qo'lga kiritgan natijalarimiz bilan cheklanib qolishimiz kerak emas. O'ylaymanki, ertangi kun haqida bosh qotiradigan haqiqiy rahbar doimo uzoqni ko'zlab ish tutadi. Agar bugungi hayotimiz haqida gapiradigan bo'lsak, uning asosiy maqsad va vazifalari bundan ancha oldin, ya'ni yigirma yillar avval belgilab olingan.

Shu ma'noda, bugungi hayotga qandaydir o'zgartirish kirtaman, deb u yoqqa-bu yoqqa yugurish mutlaqo o'zini oqlamaydi. Men yaqinda Namangan viloyati kengashining sessiyasida so'zlagan nutqimda bu haqiqatning mazmunini oddiy so'zlar bilan tushuntirib berishga harakat qilgan edim. Ya'ni, boshqaruv sohasidagi kamchiligidan haqida gapirganda, shuni aytish kerakki, hozirgi rahbarlar, mutasaddi shaxslar avvalo ertangi va indingi hayotimiz, yurtimiz kelajagi qanday bo'lishini o'ylab, o'ziga aniq tasavvur qilib ish yuritishi zarur. Boshqacha aytganda, bugungi kun haqida, xohlaymizmi-yo'qmi, bugun emas, kecha o'ylashimiz kerak edi. Ba'zi qo'shnilarimiz o'z mamlakatidagi mavjud holatni shu bugunning o'zida, bir hamla bilan o'zgartiraman, degan soxta, tagi puch gaplarni aytib, shu yo'l bilan odamlarni tinchitmoqchi, obro' topmoqchi bo'lsa, qattiq adashadi. Chunki bunday «o'yin»larni odamlar ko'p ko'rgan va ular hech qanday natija bermaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, haqiqiy rahbarning faoliyatini biz qanday mezon bilan baholaymiz? Avvalo uning ertangi kun haqida o'yashi, shu yo'lda qat'iy va izchil harakat qilishi bilan emasmi?

Takror va takror aytaman, ertaga biz uchun qiyinchilik va muammo tug'diradigan, boshimizga og'ir savdo bo'lib tushadigan har qanday muammoning yechimi haqida bugun bosh

qotirishimiz kerak. Ana shundagina ertangi kun, marra bizniki bo‘ladi.

Mana, o‘zimiz ko‘ryapmiz, dunyoda 2008-yilda boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning qachon tugashi haqida hech kim, hatto eng nufuzli, manaman degan olimlar, ekspert va mutaxassislar ham aniq bir fikr ayta olmayapti. Inqirozdan ana chiqamiz, mana chiqamiz, ikki yildan, uch yildan keyin barcha muammolarni yechamiz, degan gaplarni inobatga oladigan, ularga ishonadigan bo‘lsak, allaqachon inqirozdan chiqishimiz kerak edi. Vaholanki, ko‘pgina taniqli olimlar, yetakchi ekspertlar hammasi aksincha – ertangi kunimiz bugungidan ham og‘irroq bo‘ladi, degan tashvishli prognozlarni bildirmoqda. AQSHdagi, Yevropa mamlakatlaridagi ko‘zga ko‘ringan ekspertlar, xalqaro miqyosda tan olingan moliya institutlari vaziyatga tanqidiy yondashib, xolisona baho berib, taxminan yana ikki yil davomida dunyo bozorida og‘ir muammolar saqlanib qolishini ta’kidlamoqda.

Biz kelajak rejalarimizni belgilashda jahon miqyosidagi ana shunday qiyinchiliklarni albatta hisobga olishimiz kerak. Masalan, bugungi kunda xalqaro bozorda xomashyo sotib foyda ko‘rish tobora qiyin bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, paxta tolasi va tabiiy gazning narxi tushib ketmoqda.

Vaziyatga shu ko‘z bilan qarab, agar biz yangi talablar asosida iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirmsak, jahon bozorida xaridorgir bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarни o‘z vaqtida qurmasak, o‘zingiz aytинг, bugun holimiz nima kechardi?

Hozirgi kunda faqat g‘alla va paxta hisobidan yashash, rivojlanish mumkinmi, degan savolni siz, azizlar bilan juda ko‘p muhokama qilganmiz. Men bu masalada o‘z fikrimni ochiq va qat’iy aytganman: biz hech qachon agrar mamlakat bo‘lib qolmasligimiz va bunga aslo rozi bo‘lmasligimiz kerak. Faqat qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, paxta, g‘alla

hisobidan yashab, taraqqiy etib bo‘lmasligini bundan o‘n besh-yigirma yillar oldin o‘zimizga aniq tasavvur qilib, bu borada ko‘rgan zarur chora-tadbirlarimiz, mana, bugun o‘zining hosili va mevasini bermoqda. Ba’zi bir joylardagi rahbarlar o‘ylagandek, endi nima qilamiz, biz agrar respublikamiz, deb, shunga ko‘nib, «olma pish, og‘zimga tush», deb yurganimizda, bugungi 31 milliondan ziyod aholimizning taqdiri, farzandlari-mizning ertangi kuni nima bo‘lardi?

Hayotning o‘zi shuni har tomonlama tasdiqlab bermoqdaki, biz iqtisodiyotimizni faqat xomashyo tayyorlash va yetka-zib berishga ixtisoslashtiradigan bo‘lsak, hech qachon hozirgi marralarga yetib kelolmas edik.

Mana, yuqorida tilga olingan, Surg‘il koni negizida barpo etilayotgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi hali ishga tushmasidan turib, ishonasizmi-yo‘qmi, uning to‘qson foiz mahsulotiga chet ellardan buyurtma tushyapti. Doimo ertangi kunni o‘ylab, mana shunday oqilona qadam tashlaydigan bo‘lsak, ishonchim komil, hech qachon kam bo‘lmaymiz.

Bu gaplarni aytishdan maqsad shuki, bizni kutayotgan og‘ir muammolar faqat biz uchun emas, balki butun dunyo uchun jiddiy sinovdir. Eng muhimi, o‘tgan yillar davomida orttirgan tajribamiz, xalqimizning mustahkam irodasi, azm-u shijoatiga tayanib, biz bu sinovdan ham albatta munosib tarzda o‘tishimiz zarur.

Muhtaram yurtdoshlar!

Barchamiz bir haqiqatni esdan chiqarmasligimizni istardim. Ya’ni, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini isloh etish va demokratlashtirish jarayoni bir urinishda hal bo‘ladigan, bajariladigan vazifa emas.

Demokratiya tushunchasini o‘zimizga aniq tasavvur etadigan bo‘lsak, u faqat kundalik joriy masalalarni yechishdan iborat emas. Haqiqiy demokratiyaga yetib borish uchun ongimiz, tafakkurimiz, butun qarashlarimiz tizimini tubdan

o‘zgartirishimiz kerak. Mutlaqo yangicha, lekin o‘zimizga xos va o‘zimizga mos dunyoqarashni har tomonlama ma’qul topib, shu asosda boshqalardan aslo kam bo‘lmaymiz, deb, ona Vatanimiz, xalqimiz manfaatlarini o‘ylab harakat qilsak, ko‘zlagan maqsad-muddaolarimizga yetishsak, shuning hisobidan odamlar tinch va farovon, erkin va ozod yashassa, men ayni shunday hayotni haqiqiy demokratiya deb aytgan bo‘lardim. Ishonaman, mana shunday qarash hayotimiz qoidasiga aylansa, bu albatta oldimizda turgan ulkan maqsadlarga erishishning asosiy mezoni bo‘ladi.

Demokratiyaga osongina erishish mumkin, degan fikr bilan yashaydigan bo‘lsak, katta xatoga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Sodda va lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, bu jarayon Konstitutsiyamizda muhrlab qo‘yilgan maqsadlarimiz va prinsiplarni amalga oshirish yo‘lidagi uzlusiz davom etadigan, hayotimizni kundan kunga farovon, erkin va ozod qiladigan jarayon, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Yon-atrofimizda ba’zi bir mamlakatlar borki, ular mana, biz demokratiya qurdik, demokratiya masalasida G‘arb davlatlaridan ham o‘tib ketdik, deb, jar solganini ham eshitganmiz. Vaholanki, demokratiya va demokratik prinsiplarni joriy etishning nihoyasi yo‘q, u hech qachon aniq muddat bilan cheklanmaydi. Bu haqiqat yangilik emas va biz bu masalaning mohiyatini chuqur anglab olishimiz kerak.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, demokratiya davlat, xalq va jamiyat taraqqiyoti bilan birga yangicha ma’no-mazmunga ega bo‘lib, vaqt o‘tgan sari takomillashib boraveradi.

Shu ma’noda, bugun mamlakatimizda demokratiyani qurdik, deb ko‘kragini kerganlardan, xo‘p, endi bundan buyog‘iga nima qilmoqchisiz, deb so‘rasangiz, tayinli bir gap aytolmaydi. Chunki demokratiyaning asl ma’nosи, mohiyatini o‘zi bilmaydi. Demokratiya degani aslida xalqning xohish-irodasini ifodalaydigan, yuzaga chiqaradigan, kundalik hayotimizni

tobora yaxshilaydigan, kerak bo'lsa, har tomonlama erkin va ozod bo'lib yashashimizni, obodligimizni ta'minlaydigan be-baho imkoniyatdir. Hech kimga yalinmasdan, suveren va mustaqil bo'lib, o'z yurtimiz, o'z hayotimizga o'zimiz egalik qilib, boshimizni baland ko'tarib, g'urur bilan yashash – demokratiyaning ma'nosi asli shu.

Bugun biz uchun haqiqiy demokratik jamiyat qurishda eski mustabid tuzumdan qolgan, oyog'imizda hali-beri kishan bo'lib turgan asoratlar, qolip va qarashlardan butunlay xalos bo'lish o'ta dolzarb ahamiyatga egadir. Bu – bizning oldimizda turgan eng katta vazifamizdir. Bunday qarashlarni yoshlarimizning ong-u shuuriga turli ta'sirchan vositalar bilan singdirish, har qaysi o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda olib borish ayniqsa muhimdir. Men avvalambor o'qituvchilar, domlalardan dars jarayonida shular haqida ko'proq gapirishlарini o'tinib so'rayman. Bu borada eski kitoblar, soxta hujjat va ma'lumotlardan foydalanish mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

Biz bugun yurtimizda butunlay yangi hayot, yangicha tizim barpo etmoqdamiz. Shunday ekan, bolalarimizga, aziz farzandlarimizga ana shu huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslari, prinsip va qoidalari o'rgatishda qaysi mabbarlar, metodik adabiyotlarga suyanib ish olib boryapmiz, deb savol bersak, eng katta qiyinchilik shu masalada ekani ayon bo'ladi. Biz o'z oldimizga hamma sohalarda dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishdek buyuk maqsadni qo'ygan ekanmiz, shunday hayotni bunyod etish va shunday hayotda yashash uchun avvalambor kimlarni tayyorlashimiz kerak? Albatta, birinchi navbatda bolalarimizni shu darajada barkamol qilib tayyorlashimiz lozim.

Men ko'pchilik qatori bir narsadan xursandman. Bugungi kunda besh yashar jippi nabiralarimiz ham kompyuterdan yoki eng zamonaviy informatsion texnologiyalardan kattalar bilan teng bo'lib foydalanishni biladi. Agar bu bolalar mak-

tabga bormasidan turib, shu yoshda kompyuterni bilsa, ular kelajakda qanday aqli, qobiliyatli insonlar bo‘lishini tasavvur qiling. Biz bunday yoshlарimizга keng maydon yaratib, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun yanada qattiq ishlashimiz kerak.

Mana, chet tillarini, g‘arb va sharq tillarini o‘rganish masalasini olaylik. Shu borada bundan uch yil oldin chiqargan qarorimizni xalqimiz mammuniyat bilan qabul qildi. Chet tillarini o‘rganish – avvalo, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘rganish degani, bu esa dunyodagi eng muhim va zarur yangiliklarni o‘zlashtirish uchun qanday katta imkoniyatlar ochib berishini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Nasib etsa, biz bu masalada ham hech kimdan kam bo‘lmaymiz. Vaqt o‘tishi bilan farzandlarimiz chet tillarida, avvalo ingliz tilida bugungidan ham yaxshiroq, erkinroq gapi-radigan bo‘ladi. Ko‘zi yonib turadigan bunday yoshlарimizni ko‘rib, chet ellik mehmonlarimizning hayratda qolishi albatta bizni quvontiradi, lekin men aytmoqchiman: bunisi hali boshlanishi. Biz ertaga shunday katta yutuqlarni qo‘lga kiritamizki, undan keyin haqiqatan ham hayratda qolasiz, bizning bolalari-mizga yana bir bor tan berasiz.

Biz bugun yurtimizda hech kimdan kam bo‘lmaydigan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurayotgan ekanmiz, hech shubhasiz, Konstitutsiyamizning eng muhim prinsiplaridan biri, «o‘zbek modeli» deb nom olgan yangi jamiyat barpo etishning 5 prinsipidan biri bo‘lmish qonun ustuvorligi va qonunchilikka rioya qilish prinsiplari amalda qanday o‘rin tutayotgani haqida gaplashib olsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Hech kimga sir emas, faqatgina hуquqiy davlat sharoitida demokratik tartibga erishiladi va shunday tartib saqlanadi, demokratik institutlar va qadriyatlar hayotga tatbiq etiladi,

inson huquq va erkinliklari, eng asosiysi, ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasi amalda ta'minlanadi.

Mohiyatan olib qaraganda, bu o'rinda gap nafaqat qabul qilingan qonunlar va qonunchilik normalarini so'zsiz bajarish haqida bormoqda. **Shu bilan birga, qonun va qonunchilik hujjatlarini qabul qilishda ularning umumiy prinsip va mexanizmlarini belgilab qo'yish bilan chegaralanmaslik kerak. Bu avvalo oldimizda turgan vazifalarimiz sari ilgarilab borishimizni ta'minlab berishi zarur.**

Bugun mana shu zalda ko'p deputatlarimiz o'tiribdi. Ular ga murojaat qilib aytmoqchiman: qonunchilik sohasida qo'lga kiritgan yutuqlarimiz bizni har tomonlama quvontiradi. Lekin haqiqatan ham qonunni bajarish, qonunni o'z vaqtida joriy etish, qonunga itoat qilish – bularning barchasi avvalambor qonunning sifatini yaxshilashdan boshlanishi lozim. Shundan keyin qonunning o'zi hamma narsani joy-joyiga qo'yishi kerak. Bu masalalar bo'yicha hanuzgacha ko'pgina kamchiliklarimiz borligini ochiq aytmoqchiman.

Afsuski, ko'p holatlarda qonunlarga muvofiq belgilangan normalarni qanday vaziyatda qanday qo'llash lozimligini ko'rsatib beradigan huquqiy mexanizmlarni, qonunosti hujjatlarini, sodda qilib aytganda, qabul qilingan qonunlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniqlab beradigan hujjatlarni qabul qilishni keyinga suramiz.

Bunday tajriba shunga olib keladiki, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish sohasidagi ko'pgina masalalar zarur va eng oddiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta'minlanmay qoladi.

Shu munosabat bilan Oliy Majlis, hukumat va qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan boshqa subyektlarning eng muhim vazifasi shundan iborat bo'lishi kerakki, ular qonunlar va ularni hayotga joriy etish mexanizmlarini har tomonlama puxta ishlab chiqishi zarur. Toki bu qonun va mexanizmlar

hayotdagi aniq munosabatlarni keng miqyosda amalda tartibga solib borsin, bu munosabatlarda ishtirok etadigan har bir subyekt o‘z o‘rnini bilsin va o‘z faoliyatida qonun talablariga asoslansin.

Eng muhim, **barcha tuzilmalar, avvalo, mansabdor shaxslarning qabul qilinayotgan qonunlarni ijrochilariga o‘z vaqtida yetkazish, ularning bajarilishi ustidan ta’sirchan nazorat o‘rnatish bo‘yicha javobgarligini kuchaytirish zarur.** Bunda qonunni bajarmaslik bilan bog‘liq har bir konkret holat bo‘yicha aniq jazo turlari, **huquqiy ta’sir choralarini ko‘zda tutilishi kerak.**

Ta’kidlab aytmoqchiman, agarki biron-bir mansabdor shaxs yoki tashkilot qonun talablarini bajarmasa, ulardan quruq hisobot talab qilish bilan endi ish bitmaydi, bundan keyin qonunni bajarmaganlarni javobgarlikka tortish fursati yetdi.

Shu borada qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarni ijrochilarga yetkazishni aniq tartibga soladigan maxsus qonun hujjatini qabul qilish va amalga oshirish, eng muhim, aholini qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi, mazmun-mohiyatidan keng xabardor etib borish mamlakatimizda qonuniylikni, huquq-tartibotni mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lur edi.

Yana bir muhim vazifamiz qonun ijodkorligi faoliyatini prognoz qilish va rejalashtirish bo‘yicha samarali tizim yaratishdan iboratdir. Bu biz uchun asosiy marralarimizdan chalg‘imasdan, real hayotdan uzoqlashmasdan, nafaqat davlat boshqaruvi, iqtisodiy taraqqiyot sohasidagi aniq vazifalarni hal etishda, balki asosiy maqsadimiz bo‘lgan huquqiy demokratik davlat qurishni izchil amalga oshirishda qanday qonunlar qabul qilishimiz kerakligini aniq belgilash imkonini beradi.

Bugungi kunda ana shu yo‘nalishda ko‘plab ishlar qilinmoqda, ammo davrning o‘zi, yangi konstitutsiyaviy sharoitlar bu boradagi ishlarni har tomonlama puxta ishlab chiqilgan huquqiy qonunchilik asosida tashkil etish va bajarishni taqozo

etmoqda. «Parlament nazorati to‘g‘risida» va «Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi qonunlarning tezroq qabul qilinishi ko‘p jihatdan ana shu vazifalarni hal etish imkonini beradi.

Yana bir muhim masala.

Konstitutsiyamizda bizning bosh maqsadimiz – faqat huquqiy demokratik davlat emas, balki adolatli jamiyat qurish ekani aniq-ravshan belgilab berilgan. Bu maqsad hayotimizda mustahkam qaror topgan oddiy haqiqatdan, ya’ni xalqimiz har qanday qiyinchilikka chidashi mumkin, ammo adolatsizlikka chiday olmaydi, degan so‘zlarni yaq-qol tushunishdan kelib chiqqan, desam, o‘ylaymanki, butun el-yurtimizning fikrini ifoda etgan bo‘laman.

Men joylarda xalqimiz vakillari bilan muloqotda bo‘lgan chog‘imda, shunga ishonch hosil qilamanki, albatta, odamlar ba’zan qonunlarni, qonun normalarini juda chuqur bilmasligi mumkin, lekin asrlar davomida adolatsizlikka qarshi kurashgan xalqimiz bu masalada hech qachon adashmaydi va hech qachon adolatsizlikka chidolmaydi. Shuni hammamiz to‘g‘ri tushunib, bu masalani aslo e’tiborimizdan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Bizning Konstitutsiyamiz, eski sovet konstitutsiyasidan farqli o‘laroq, inson huquq va erkinliklari, uning manfaatlari davlat manfaatlaridan ustun ekanini muhrlab qo‘yish orqali odamlar uchun munosib hayot sharoitini yaratishni o‘zining muhim maqsadi qilib belgiladi, ijtimoiy adolat prinsiplarini qonunchilik faoliyatimiz barcha yo‘nalishlarining asosi deb e’lon qildi.

Qadimgi dunyoning buyuk donishmandlari «Nimaiki qonuniy bo‘lsa, u – adolatlidir», deb ta’kidlaganlari bejiz emas. Ular shu tariqa **aynan qonun adolat manbai va mezoni ekanini uqtirganlar**, desak, har tomonlama o‘rinli bo‘ladi.

Va aksincha, agar qonun bajarilmasa, qonunda bir narsa yozilib, hayotda hammasi boshqacha bo‘lsa, odamlarning

Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda muhrlab qo‘yilgan adolat va demokratiya normalariga nisbatan har qanday ishonchi yo‘qoladi. Bunday holat barchamizga ayon. Qonun va qonun ustuvorligi bo‘lmagan joyda avvalo uning o‘rnini korrupsiya degan balo egallaydi.

Mamlakatimizda bu boradagi, ya’ni, qonuniylik va qonun ustuvorligini ta’minlash sohasidagi ishlar qanday ahvolda? Bu prinsip qay darajada hayotimiz qoidasiga, davlat va jamiyat qurilishining poydevoriga aylangan? Avvalo, bu qoida Ichki ishlar vazirligi va uning mahalliy idoralari, prokuratura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlari faoliyatining asosi va mohiyatiga aylanganmi?

Keling, ana shu masalalarga bir nazar tashlaylik.

Shu savollarga javob topish, bu borada yurtimizda hukm surayotgan vaziyatni xolisona tahlil qilish maqsadida O‘zbekistonidagi bugungi ahvolni dunyodagi boshqa davlatlar bilan qiyoslab, solishtirganda ko‘p narsa ayon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, AQSHda faoliyat ko‘rsatayotgan, katta obro‘ga ega bo‘lgan, Gellap instituti deb nom olgan ijtimoiy fikrni o‘rganish markazi tomonidan «Qonuniy tartiblarga itoat qilish indeksi» degan mavzuda 2015-yilda o‘tkazilgan va e’lon qilingan tadqiqot materiallari bilan tanishish ayni muddao bo‘lur edi.

Ushbu nufuzli tashkilot shu yo‘nalish bo‘yicha o‘z xulosasini chiqarish uchun jahon miqyosida 141 ta mamlakatda so‘rov o‘tkazib, katta yoshdagi 142 ming shaxsning fikrini o‘rgangan. So‘rovnomada 3 ta savol o‘rtaga qo‘yilgan.

Birinchi savol «Siz o‘zingiz yashayotgan shahar yoki tumandagi mahalliy politsiyaga ishonasizmi?» degan mazmunda berilgan.

Ikkinci savol: «Siz o‘zingiz yashayotgan shahar yoki tumanda kechasi xavf-xatardan qo‘rqmasdan yolg‘iz yura olasizmi?».

Va uchinchidan, «Oxirgi o'n ikki oyda siz va oila a'zolaringizning pul va mol-mulki o'g'irlangan holat sodir bo'lganmi?» degan savol berilgan.

E'tibor bering, bu savollarning uchalasi ham juda o'tkir va har bir odamning hayotiga daxldor savollardir.

Ayni mana shunday savollar orqali, avvalambor, so'rov o'tkazilgan mamlakatda yashayotgan har qaysi odamning kayfiyatiga, uning o'zini erkin his etishiga qonunda belgilangan tartiblarga amal qilish qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniqlash ko'zda tutilgan.

Bizning mamlakatimiz, O'zbekistonimiz, bu so'rov-noma natijalariga ko'ra, dunyodagi 141 ta davlat orasida 2-o'rinni egallaganini alohida mamnuniyat bilan ta'kidlash lozim.

Takror aytaman – jahondagi 141 ta davlat o'rtasida 2-o'rinni egallaganimiz, faqat Singapur davlati bizdan oldin-gi o'rinni band etgani – bu nafaqat huquq-tartibot idoralari xodimlarining, balki barchamizning yutug'imiz, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Nega deganda, qonunga itoat qilish, mehr-oqibat, o'zaro ishonch va hurmat muhiti jamiyatimizda hukmron bo'lmasa, faqat huquq-tartibot organlari xodimlarining faoliyati bilan bu borada shunday yuksak nati-jaga erishish qiyin.

Bizning bunday o'ta muhim masala, ya'ni yurtimizda tinch va osuda hayotni asrash va himoya qilish bo'yicha mana shunday yuqori darajaga ko'tarilganimiz, bu sohada olib borayotgan ishlarimiz xalqaro miqyosda keng e'tirof etilgani, hech shubhasiz, barchamizga g'urur va iftixor yet-kazadi.

Bu haqda gapirganda, xalqimizning tinchligi va osoyish-taligini, eng asosiysi, odamlarimizning hayotdan roziliginini, ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlash o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, bu masala bun-

dan buyon ham e'tiborimiz markazida turishini unutmasligimiz zarur.

Hurmatli do'stlar!

Shuni ham tan olishimiz kerak, kundalik hayotimizda hali-beri qonunga riox qilmaslik, qonun va qonuniylikning, adolat mezonlarining amalda qo'pol ravishda buzilishi, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari tomonidan o'z burchiga sovuqqonlik bilan qarash qonunbuzarlikka olib kelishi bilan bog'liq holatlar, afsuski, kam emas.

Bu – haqiqat va undan ko'z yumib bo'lmaydi.

Shu fursatdan foydalanib, bu borada ayrim misollar ni olib kelmoqchiman. Ushbu masala bo'yicha o'tkazilgan ba'zi tahlillar shundan dalolat beradiki, joriy yilning to'qqiz oyi davomida fuqarolarimizdan huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining mansabdar shaxslari ustidan kelib tushgan 500 ga yaqin shikoyatning beshtadan bittasi ichki ishlar organlari xodimlarining noqonuniy xatti-harakatlariga tegishlidir.

«Ishonch telefon»lari orqali adliya idoralari qilingan murojaatlarning 96 foizi qanoatlantirilgan, arizalarning 4 foizini qanoatlantirish rad etilgan. Bu raqamlar nimadan dalolat beradi? Shikoyat bilan murojaat qilgan odamlarning u yoki bu davlat organlari qarorlaridan norozi bo'lishga to'la haqli ekanidan dalolat beradi.

Odamlar nima haqida ariza yozmoqda? Murojaatlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ular huquqni muhofaza qiluvchi organlar noqonuniy qarorlar qabul qilayotganidan, bu idoralarning mansabdar shaxslari qo'pol muomalada bo'layotganidan, aholi murojaatlari ular tomonidan to'liq, sifatli va o'z vaqtida ko'rib chiqilmayotganidan shikoyat qilmoqda. Fuqarolar tergov organlari tomonidan tergov harakatlarini amalga oshirishda protsessual qonunchilikni qo'pol ravishda buzish bilan bog'liq faktlar borligini ko'rsatmoqda.

Yurtimizda tadbirkorlik faoliyati bo'yicha asossiz tekshiruvlar o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan ko'plab qonun hujjatlari qabul qilinganiga qaramasdan, ana shu soha vakillari bunday holatlar va boshqa qonunbuzariliklar davom etayotganidan shikoyat qilmoqda.

Mana shunday va boshqa ko'plab misollar huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'zlarining asosiy vazifasi, avvalo, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonun hujjatlarining talab va normalariga so'zsiz rioya etish ekanini teran anglab olishi uchun hali ko'p ish qilishimiz kerakligidan dalolat beradi.

Bunday holatlarni qayd etar ekanmiz, Bosh prokuratura O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat qilish (Konstitutsiyaning 118-moddasi) bo'yicha zimmasiga yuklatilgan konstitutsiyaviy vazifani qay darajada va qanchalik samarali bajarmoqda, degan savol tug'iladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilning 9 oyida Bosh prokuratoraga fuqarolardan prokuratura xodimlari ustidan 426 ta shikoyat kelib tushgan. Mazkur shikoyatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha 45 nafar xodim intizomiy javobgarlikka tortilgan, 22 nafar xodim egallab turgan lavozimidan ozod qilin-gan, 33 nafar xodim prokuratura organlaridan bo'shatilgan.

O'z-o'zidan ravshanki, ana shu raqamlar va prokuratura tizimidagi ahvol bizni qoniqtirmaydi, albatta. Shu munosabat bilan Oliy Majlis Senati qisqa muddatda prokuratura faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish va uning faoliyati qonuniyligi masalasini ko'rib chiqishi zarur.

Bugungi kunda qonun ustuvorligini ta'minlash uchun nazorat hamma joyda kerak, degan masala bejiz o'rtaga qo'yilmayapti. Nazorat deganda, biz avvalambor jamoat-chilik nazoratini kuchaytirishimiz lozim. Birinchi navbatda, jurnalistlarimiz, matbuot, televide niye va turli ijtimoiy insti-

tutlar, fuqarolik jamiyatni vakillari bu nazoratning samarasini oshirishi darkor. Prokuratura idoralarining faoliyati ustidan nazorat olib borishni parlamentimizning yuqori palatasi – Senat kuchaytirishi kerak. Ma'lumki, bu vazifa, bu vakolat Konstitutsiyamizga muvofiq senatorlar zimmasiga yuklangan. Deputatlarimiz, Senat a'zolari bu masalaga shunchaki rasmiy qaramasdan, aniq amaliy ishlarni olib borishi zarur. Xalq noiblari, viloyat kengashlariga saylangan deputatlarimizning vakillari Senatda faoliyat ko'rsatmoqda. Senat – bu xalqimizning ishonchli vakillaridan iborat bo'lib, hayotimizda biron-bir masala yo'qki, uning faoliyatiga daxldor bo'lmasa. Agar qaysi masala bo'yicha Senatning vakolati va javobgarligi yo'q, degan savolni bersak, bunday masalaning o'zi yo'q. Agar ish qidirsang, ish doim topiladi, deganlari-dek, Senatning zimmasida vazifalar ko'p.

Albatta, har qaysi viloyat kengashiga saylangan deputatlar saylov oldidan ko'p va'dalar beradi. Lekin, ming afsuski, amalda bu va'dalarni bajarishda, o'zini haqiqiy deputat – saylovchilar ishonchini qozongan, xalq vakillari sifatida ko'rsatishda, el-yurt bilan birga bo'lish, odamlarning dard-u tashvish va muammolarini chuqur o'rganib, ularni ijro hokimiyati oldiga qo'yishda, fuqarolarning murojaatlariga qonuniy va xolisona javob berishda, o'z elektorati bilan muloqot olib borishda aksariyat deputatlarimiz juda sust.

Qisqacha aytganda, biz bu masalaga ham tanqidiy ko'z bilan qarashimiz kerak. Avvalambor, deputatlarimiz xalq bilan gaplashishni, muloqot qilishni qaytadan, chuqurroq o'rganishlari lozim.

Bugungi kungacha ichki ishlari va huquq-tartibot organlari faoliyatini tartibga soladigan qonunning yo'qligini ham normal holat, deb bo'lmaydi. Shuning uchun mazkur organlarning, birinchi navbatda, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish

borasidagi maqomi, faoliyat shakli va usullarini aniqlashtirish hamda ularga tuzatishlar kiritish zarur.

O'tgan yillar davomida sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida keng ko'lamli va samarali ishlar amalga oshirilgанини етироф этишимиз керак. Со'нгги yillarda yangi tahrirdagi «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida»gi qonun, shuningdek, «Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida», «Sud-huquq tizimi ni yanada isloh qilish munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqa ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi.

Ana shu qonunchilik hujjatlariga muvofiq, jinoyat protsessining sudgacha bo‘lgan bosqichida fuqarolarning protsessual huquqlariga rioya etilishi ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo‘yicha choralar amalga oshirildi, «Xabeas korpus» kabi demokratik institutni qo‘llash sohasi kengaytirildi. Umumiy yurisdiksiya sndlari faoliyatining tarkibiy tuzilishi va tashkiliy asoslarini takomillashtirish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, sud idoralari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tarkibdagi parlamentimiz tomonidan sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirishga qaratilgan qator muhim qonunlar qabul qilindi.

Milliy qonunchiligidan kiritilgan o‘zgartishlarga binoan, fuqarolik sud ishlariga elektron hujjat aylanish tizimi joriy etildi. Bu har yili fuqarolik, xo‘jalik sndlari tomonidan ko‘rib chiqiladigan yuz minglab ishlarni ko‘rib chiqish samadorligi va tezkorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarini yanada

rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoxda.

Asosiy qonunimizning 32-moddasiga kiritilgan tuzatish-larga muvofiq, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati instituti xalq hokimiyatining muhim elementi sifatida konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi.

Ana shu konstitutsiyaviy tuzatishni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida», «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi qonunlar va boshqa ko'plab qonunchilik hujjatlari fuqarolik jamiyatini yuksaltirishda, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalarini hal etishda fuqarolik institutlari, ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy hamda mehnat huquqlarini himoya qilish borasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi.

So'nggi yillarda qabul qilingan ayrim qonunlar va Prezident farmonlari tarkibiy o'zgarishlar, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, bu borada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish uchun keng yo'l ochib beradigan qonunchilik bazasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur hujjatlar xususiy mulkni erkin rivojlantirish, xususiy tadbirkorlarni ularning xo'jalik faoliyatiga davlat, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat organlarining asossiz aralashuvidan himoya qilish kafolatlarini kuchaytirdi. Qonunlar va Prezident farmonlarida belgilab berilgan qoidalar tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma'muriy va jinoyat qonunchiligini erkinlashtirish jarayonining davomi bo'ldi.

Shu borada «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni ja-

dal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining ahamiyatini alohida ta’kidlashni istardim. **Ana shu qonunga muvofiq, tadbirkorlik subyektlari faoliyatining barcha jihatlariga taalluqli 40 dan ortiq me’yoriy-huquqiy hujjatga o‘zgartish va qo‘srimchalar kiritildi.**

Shu o‘rinda yana takrorlab aytmoqchiman: tadbirkorlik, xususiy mulk rivoji bilan bog‘liq masalalar doimo e’tiborimiz markazida turadi. Kimningdir mulkiga ko‘z olaytirish, kimnidir ko‘rolmaslik, kimningdir yo‘lini to‘sib olish, qo‘rqtish kabi sobiq sovet davridan qolgan illatlardan butunlay voz kechish biz uchun eng muhim, eng ustuvor vazifadir.

Men joylarda turli soha vakillari bilan uchrashib, suhbatlashganimda shunga guvoh bo‘lyapmanki, bugun bu boradagi ahvol, fuqarolarning fikri ijobjiy to‘monga o‘zgaryapti. Buni ham xolisona e’tirof etishimiz kerak. Ayniqsa, ishbilarmonlar, xususiy mulk egalari, tadbirkorlar ularning faoliyatini noqonuniy tekshirish, nazorat qilish kamayganini, kerak bo‘lsa, nazorat organlari endi tadbirkorlar yo‘liga to‘g‘anoq bo‘lish o‘rniga, aksincha, ularga yordam berayotganini aytmoqda. Bunday holatlarni barchamiz astoydil qo‘llab-quvvatlashimiz kerak.

Hozirgi kunda jamiyatimizning ustuni bo‘lib, el-yurt ishonchini qozonib borayotgan fermerlik harakatini oladigan bo‘lsak, bu harakatni shakllantirish, uning mustahkam oyoqqa turib olishi uchun bundan 20 yil oldin boshlagan keng ko‘lamli ishlarimizni oxiriga yetkazishga men kafolat beraman, deb aytgan so‘zlarimni bugun ham yaxshi eslayman. Ayni ana shunday yondashuv asosida fermerlik harakatini yuksak darajaga olib chiqishga erishdik.

Endi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik egalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish bo‘yicha

ham shunday ish tutsak, bu masalada qat'iy tartib, nazorat o'rnatatsak, o'z ishini boshlagan odamlarga ko'zini olay-tiradigan turli nazoratchilarning sonini kamaytirib, kerak bo'lsa, ularning tanobini tortib qo'ysak, bizning ertangi kuni-mizni qurishda, xalqimizni boqishda, butun dunyoda obro'yimizni oshirishda, eng muhim, xalqimizni rozi qilishda, hech shubhasiz, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hal qiluvchi kuchga aylanadi.

Men yaqinda Namangan viloyati kengashi sessiyasida bu soha vakillariga minnatdorlik bildirib, o'z nutqimda ba'zi ra-qamlarni keltirgan edim. Namanganda yalpi hududiy mahsulotning 80 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobidan ishlab chiqarilmoqda, ishga yaroqli bo'lgan aholining 82 foizi shu sohada mehnat qilmoqda.

Ayni shu yo'l bilan o'zining tirikchiligini ko'rayotgan, mam-lakatimizning boyligiga boylik, kuchiga kuch qo'shayotgan bunday odamlar oldida ta'zim qilsak arziydi, albatta.

Hech shubhasiz aytish mumkin – xususiy mulk, kichik biznes egalari, tadbirkorlarimizning yo'lini yanada kengaytirib beradigan bunday qaror va tadbirlarimizni ko'paytirishimiz va samaradorligini oshirish bugungi kunda eng dolzarb vazifa-mizga kiradi.

Hammamiz shuni tan olishimiz kerak, jamiyatda qonuniylik, qonun ustuvorligini to'liq ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri – bu odamlarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni shu ruhda kamol toptirish, fuqarolarning qonunni puxta bilishi, yuksak huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lishidan iborat. Buni esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Biz demokratik rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlar qatoriga ko'tarilishni o'zimizning asosiy maqsadimiz deb oldimizga qo'yar ekanmiz, bu yo'lda juda muhim bir shartni xayolimizdan chiqarmasligimiz darkor. Ya'ni, **demokratiya yo'liga kirishimiz avvalo aholimizning ong-u saviyasim**

o‘zgartirishni, totalitar, zo‘ravonlik tizimidan meros bo‘lib qolgan qoldiqlar va qoliplardan voz kechishimizni so‘zda emas, kundalik hayotimizda ta’minlashni talab qiladi. Bu esa albatta bir kunlik oson ish emas – bunga vaqt kerak, yangi hayotni o‘z yurtida qurmoqchi bo‘lgan har qaysi inson shunga astoydil intilishi zarur. Avvalo bu maqsad uning ong-u tafakkurida mustahkam o‘rin topishi darkor.

Buning uchun mamlakatimizda huquqiy ta’lim-tarbiyani yangi bosqichga ko‘tarishimiz, uning sifatini tubdan yaxshilashimiz lozim.

Aziz yurtdoshlarim!

Oldimizda turgan ulkan vazifalarni, amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va mantiqiy yakuniga yetkazish biz uchun oldin ham oson bo‘lmagan, bugun ham katta sinovdir. Lekin shu borada ishonchim komil, mustaqil, ozod va erkin, demokratik davlat va farovon jamiyat qurish, hech kimga qaram bo‘lmasdan, yalinmasdan yashash imkoniyati xalqimizga yuz yillarda bir marta beriladi.

Ayni shunday tarixiy imkoniyatni qo‘limizdan chiqarish – bu nafaqat bugungi avlodimiz, balki kelajak avlodlar oldida ham xiyonat bo‘lur edi. Bunday imkoniyatni biz hech qachon hech kimga bermaymiz. Bunday xomxayol hech kimning tushiga ham kirmasin. Biz boshlagan yo‘limizni oxirigacha albatta yetkazamiz, inshoollo.

Haqiqatan ham, ozod va erkin hayot hech qachon o‘z-o‘zidan oydan tushmaydi. Bu hayotda hech narsa tekinga berilmaydi. Shunday ekan, xalqimiz asrlar davomida qalbida, yuragida saqlab kelgan, ota-bobolarimiz havas va orzu qilgan, ular uchun armon bo‘lgan mana shunday mustaqil hayotni barpo etish bizning muqaddas vazifamiz bo‘lib, shunday tarixiy imkoniyatni qo‘ldan chiqarishga o‘zini inson degan, mard degan, vatanparvar degan odamlarning aslo haqqi yo‘q.

Qadrli do'stlar!

Barchamizga ma'lum, bir yil oldin mana shu muhtasham zalda siz, azizlar bilan maslahatlashib, 2015-yilni yurtimizda Keksalarни e'zozlash yili, deb e'lon qilgan edik. Bizning bunday qarorga kelishimizdan asosiy maqsad – bugungi farovon hayotga erishishda munosib hissa qo'shgan keksa avlod va killarining izzat-hurmatini joyiga qo'yish, muhtaram faxriyalarimizning ruhini, ko'nglini ko'tarish, ular uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish yo'lida olib borayotgan ishlarimizning samarasini oshirishdan iborat bo'lib, ayni shunday muhim vazifalarni o'z oldimizga qo'ygan edik.

Bugun, mana shu fursatdan foydalanib, ana shunday olijanob maqsadlarga qaratilgan, amalga oshirgan ishlarimiz yakuni bilan siz, azizlarni tanishtirish, qisqacha hisobot berishni zarur, deb bilaman.

Bu borada birinchi navbatda yolg'iz qariyalar, pensioner va nogironlarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirishning davlat dasturi qabul qilingani va bu yo'nalishda 5-6 yilga mo'ljallab rejalashtirilgan ishlarimiz ayniqsa e'tiborga sazovor, deb hisoblayman.

Xonardonlarimizning ko'rki bo'lgan keksalarimizni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida shu yilning o'zida 2 million 750 ming nafar otaxon va onaxonlarimizning pensiya miqdori 20 foizdan ziyod ko'paytirilib, ularga davlat budgeti hisobidan 12 trillion 888 milliard so'm pensiya to'langani, o'z vaqtida va uzuksiz yetkazib berilganini alohida ta'kidlash joiz.

Bu haqda gapirganda, bugungi kunda davlatimiz pensiyaga ajratadigan mablag'ning miqdori dunyodagi kamdan kam davlatlar qatorida o'rtacha oylikning 41 foizidan ziyodini tashkil etishini yana bir bor aytib o'tmoqchiman.

Joriy yilda 1941-1945-yillardagi urushda qatnashgan va front ortida xizmat qilgan 61 mingdan ortiq faxriyalarimizga kommunal xizmatlar bo'yicha 3 milliard 900 million so'm

miqdoridagi kompensatsiya pullari to‘lab berildi. Shuningdek, 100 yosha yetgan va undan oshgan keksalarimizning pensiya-siga eng kam ish haqining 100 foizi miqdorida ustama to‘lab borish tizimi tatbiq etildi va shu kabi bir qator boshqa chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Butun taraqqiyat parvar insoniyat qatori bizning xalqimiz ham Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 70 yilligini keng nishonladi, shu munosabat bilan mahallalari-miz, shahar va qishloqlarimizda ana shu g‘alabani yaqinlashtir-gan tabarruk insonlarga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatildi.

Ayniqsa, urush va mehnat fronti faxriylari g‘alabaning 70 yilligi munosabati bilan ta’sis etilgan esdalik medali, pul mu-kofotlari va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlangani, ularning sharafiga turli uchrashuvlar, tantanali marosimlar o‘tkazilgani bu mo‘tabar zotlarga e’tibor va g‘amxo‘rlikning yana bir amaliy namoyoni bo‘ldi.

Shu bilan birga, mahalliy hokimliklar, «Mahalla» jamg‘ar-masi va boshqa nodavlat tashkilotlar, homiyalar ko‘magida yolg‘iz va ijtimoiy madadga muhtoj qariyb 10 ming fuqaroning uy-joylari ta’mirlab berilganini qayd etish o‘rinlidir.

Davlat dasturi doirasida **faxriylarga tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish, ularni tizimli asosda sog‘lomlashtirishni tashkil etish, shu yo‘nalishga ixtisoslashtirilgan davolash va ijtimoiy xizmat muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash** bo‘yicha ham ko‘p ishlar qilindi.

Jumladan, barcha hudud va mintaqalarimizda «Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin» degan shior ostida keksalar, pensioner va nogironlarga ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy tadbirlar o‘tkazildi. Ularda 215 mingdan ziyod otaxon va onaxonlarimiz chuqur tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, ularning salomatligini tiklashga ko‘mak berildi.

O'tgan yili qabul qilgan qarorimizga muvofiq 50 mingdan ortiq urush va mehnat fronti faxriylari, pensioner va nogironlar sanatoriylarda bepul davolandi. Ularning 7 ming nafariga ix-tisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatildi, 5 mingdan ko'proq qariyalarimiz uchun zamonaviy klinikalarda operatsiyalar o'tkazilib, ular o'z dardiga shifo topdi.

Tabiiyki, bu borada sog'liqni saqlash tizimining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, tibbiy xizmatning sifatini davr talablari darajasiga ko'tarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Joriy yilda Investitsiya dasturi asosida 141 ta tibbiyot mu-assasasida qariyb 495 milliard so'm hajmidagi rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari amalga oshirilgani, ularni zamonaviy diagnostika va davolash asbob-uskunalari bilan jihozlash uchun xorijiy moliya institutlarining 25 million dollarlik mablag'lari jalg etilgani ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

Shular qatorida «Turon», «Havotog' gulshani», «Chimyon», «Sitorai Mohi Xosa», «Kosonsoy», «Nuroniy», «Tovoq-soy», «Taxiatosh», «Marjon suvi» sanatoriylarida, shuningdek, Toshkent va Sirdaryo viloyatlaridagi «Saxovat» uylarida qariyb 40 milliard so'mlik qurilish, rekonstruksiya va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini aytish o'rnlidir.

Keksalarimizga ko'rsatilayotgan maxsus yordamlar, ularning moddiy, ijtimoiy, maishiy ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlarimiz bilan birga, ular yashayotgan xonardonlar, mahallalar, qishloq va shaharlarimizni obod va farovon qilish borasidagi faoliyatimiz va ularning amaliy samarasi, hech shubhasiz, keksalarimizning hayotini yanada mazmunli va fayzli qilishga qaratilgani bilan alohida e'tiborlidir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, joriy yilda qishloqlarimizda namunaviy loyihalar asosida 12 mingta zamonaviy uy-joylar, qariyb 170 ta infratuzilma obyekti, 260 kilometr yo'l, 285 kilometr elektr, 370 kilometr gaz, 470 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari barpo etilganini ta'kidlash zarur.

Shular haqida gapirganda, xalqimiz orasida keng tarqalgan bir hikmatni, ya’ni «Keksalari bor uydan fayz-u baraka arimaydi» degan gapda juda katta ma’no-mazmun borligini, mo’tabar otaxon va onaxonlarimizning har bir so‘zi, maslahat va duolarining o‘zi naqadar katta boylik ekanini hech qachon unutmasligimizni istardim.

Haqiqatan ham, bu tabarruk zotlar biz uchun qanday katta boylik va davlat ekanini xalqimiz yaxshi biladi va ularni doimo qadrlab, e’zozlab yashaydi.

Albatta, «Keksalarni e’zozlash yili» Davlat dasturi doirasida amalga oshirgan ishlarimiz haqida yana uzoq gapirish, ko‘plab raqam va misollarni olib kelish mumkin. Lekin ularni muxtasar ifoda qiladigan bo‘lsak, dastur bo‘yicha barcha mambalar hisobidan **2 trillion 246 milliard so‘m va 225 million AQSH dollaridan ziyod mablag‘ sarflangani bu boradagi ishlarimizning ko‘lami va miqyosidan yaqqol dalolat beradi, deb o‘ylayman.**

O‘z-o‘zidan ravshanki, mo’tabar qariyalarimizga bo‘lgan e’tibor, bu yo‘nalishdagi ishlar faqat shu yil bilan cheklanmaydi, balki yangi bosqichda, yangicha shaklda izchil davom ettiriladi. Chunki bizlarni dunyoga keltirib, voyaga yetkazgan, o‘zining mashaqqatli mehnati bilan bugungi yorug‘ kunlarga katta hissa qo‘sghan keksa avlod vakillarini har tomonlama qadrlash – har birimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lib, bu o‘zbek xalqiga mansub betakror fazilatlarning yaqqol tasdig‘i sifatida bolalarimizni, yoshlarimizni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda yorqin namuna bo‘lishi muqarrar.

Shu ma’noda, agar menga buyursa, keksalarning, yoshi ulug‘ insonlarning hurmatini joyiga qo‘yish uchun har qaysi kelayotgan yilga ayni shunday nom berishni ma’qul, deb bilardim.

Fursatdan foydalanib, mana shunday ezgu ishlarda faol ishtirok etgan davlat va nodavlat tashkilotlarga, ushbu zalda

o‘tirgan chet davlatlarning muhtaram elchilari, xorijiy va xalqaro tuzilmalar vakillariga, shu yo‘lda o‘z mehnati, kuch va imkoniyatlarini ayamagan barcha oljanob insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiyl minnatdorlik izhor etishga ijozat bergaysiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Endi siz, azizlar bilan, yurtimizda shakllangan an'anamizga ko‘ra, kirib kelayotgan yangi – 2016-yilga qanday nom berish haqida maslahatlashib olishimiz kerak.

Ma’lumki, bu yorug‘ olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne’mat bor. Har qaysi ongli inson jondan aziz farzandining baxtini, kamolini o‘ylab, hamisha ezgu orzu-intilishlar bilan yashaydi, o‘z surriyotining har tomonlama sog‘lom va barkamol bo‘lishini istaydi.

Sog‘lom bola, sog‘lom avlod orzusi ajdodlarimizdan bizza o‘tib kelayotgan, qon-qonimizga singib ketgan azaliy intilishdir. Agar ota-bobolarimizning turmush va tafakkur tarziga nazar solsak, ular insonning nasl-nasabiga, yetti pushtining tozaligi, avlodning sog‘lig‘iga juda katta e’tibor bergenini ko‘ramiz.

Sog‘lom bola sog‘lom va ahil oilaning mevasi bo‘lib, fahqatgina sog‘lom onadan sog‘lom bola tug‘iladi. Asrlar davomida o‘z tasdig‘ini topgan bu haqiqatni tushuntirib, izohlab o‘tirishning hojati yo‘q, deb o‘layman.

Ana shunday muhim hayotiy qadriyatni jamiyatimizda yanada chuqur qaror toptirish, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yanada yuksak bosqichga ko‘tarish maqsadida men kirib kelayotgan yangi – 2016-yilni yurtimizda **Sog‘lom ona va bola yili**, deb e’lon qilishni taklif etaman.

Hurmatli do‘sstar!

Barchamizga yaxshi ayonki, har bir inson avvalo Ollohnning marhamati bilan, ona zotining o‘z bolasini yuragi ostida

asrab, to'qqiz oy davomida tortgan mashaqqatlari tufayli dun-yoga keladi.

Shu bois hammamiz Yaratganning buyuk mo'jizasi bo'lган aziz ayollarimiz timsolida hayot abadiyligini ta'minlab kela-yotgan tabarruk zotlarni ko'ramiz.

Yer yuzida hayot paydo bo'libdiki, odamzod mo'tabar ona siymosi oldida hamisha ta'zim qiladi. Muborak hadis-lardagi «Jannat – onalarning oyog'i ostidadir» degan so'zlar ham ana shu yuksak mehr va ehtiromning yorqin ifodasidir.

Ayollarga sharqona ehtirom va e'zoz ko'rsatish – biz uchun ota-bobolarimizdan qolgan ibratli meros bo'lib, biz bunday an'analarimizga doim sodiq bo'lib yashaymiz.

Biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng sog'lom va bar-kamol avlodni voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oila, ona-lik va bolalikni himoya qilish masalasini o'zimiz uchun eng muhim, ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik.

Bu sohada zarur huquqiy-me'yoriy bazani takomillash-tirish, millat genofondini yaxshilash, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish borasida qanday ulkan ishlarni amalga oshirganimiz barchamizga yaxshi ma'lum, albatta.

Ana shu yo'nalishdagi keng ko'lamli ishlarimizning davomi haqida gapirganda, birgina misol keltirishni joiz deb bilaman. Bugungi kunda Toshkent shahrida Janubiy Koreya davlatining beg'araz yordami bilan qiymati 130 million 600 ming dollar bo'lган ko'p tarmoqli zamonaviy bolalar shi-foxonasining qurilishi boshlandi. Bu majmuaning – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hududida yagona bo'lган, to'rtinchchi, ya'ni eng yuqori darajaga ega noyob tibbiyot maskanining yaqin kelgusida foydalanishga topshiri-lishi sog'lom avlod tarbiyasi yo'lida ulkan qadam bo'lishi shubhasizdir.

«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturini ishlab chiqishda, avvalo, yurtimizda oila, onalik va bolalikni himoya

qilish bo'yicha shakllangan huquqiy-me'yoriy bazani takomil-lashtirish masalasi e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim.

Ayniqsa, olis va chekka hududlarda, murakkab iqlim sharoitida yashayotgan aholi, avvalo ayollar uchun ijtimoiy, mafishiy, tibbiy nuqtayi nazardan zarur sharoitlarni yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosidagi uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini barpo etish, aholini toza ichimlik suvi, tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmat ko'rsatish darajasini yuksaltirish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirishimiz lozim.

Shular qatorida tibbiyot muassasalari, jumladan, joylarda faoliyat ko'rsatayotgan perinatal markazlarning moddiy-texnik bazasini, ularning kadrlar salohiyatini yanada kuchaytirish, oilaviy poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlarining ish samarasini oshirish, perinatal hamshiralar sonini ko'paytirish, akusher-ginekologlar, bolalar shifokorlarining malakasini yuksaltirish masalalariga alohida ahamiyat berishimiz kerak.

Perinatal hamshira – bu ona va bolaning sog'lig'idan mun-tazam xabar olib turadigan, homilador ayollarga doimiy zarur yordam ko'rsatadigan, ana shunday olijanob vazifani bajaradi-gan kasb egasidir. Shuning uchun bunday hamshiralar sonini ko'paytirishga alohida e'tibor berib, shu borada tegishli qaror ham qabul qilindi.

Sog'lom avlodni voyaga yetkazish borasida bolalarimiz o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni yanada keng ommalash-tirish, shu maqsadda yangi sport obyektlarini qurish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash kabi vazifalarni kun tartibiga qo'yish zarurligi haqida ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'layman.

Sog'lom va mustahkam oila sog'lom kelajak poydevori ekanini nazarda tutib, bo'lajak kelin-kuyovlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha mas'uliyatni kuchaytirish, shu maqsadda tegishli poliklinikalarni zamонавиј тibbiyot va diagnostika as-

bob-uskunalar bilan jihozlash, ularda xizmat ko'rsatish sifati ni oshirish masalasiga eng muhim vazifa sifatida qarashimiz zarur.

Shu borada o'ta muhim bir masalaga siz, azizlarning e'tiboringizni jalb etmoqchiman.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, **yurtimizda qiz bolalarning – bo'lg'usi onalarning ham jismoniy, ham ma'naviy sog'lom bo'lib voyaga yetishi, ularning o'rta maktabdan so'ng litsey va kollejlarda albatta ta'lim olishini ta'minlash, zamona-viy bilim va kasb-hunarlarlarni egallashi bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.**

Men bu haqda takror va takror gapirishni o'zimning burchim deb bilaman.

Qiz bolani kollejni bitirmasidan, hunar egallamasidan turib, kimki turmushga bermoqchi bo'lsa, bilib qo'yinglar, buni men uzoqni ko'rmaslik, kaltabinlik deb hisoblayman. Qiz bola, avvalo, kasb egallasin, o'z fikriga ega bo'lsin, hayotni anglasin. Shundan keyin u hayotda o'zining munosib o'mini topadi, jamiyatimizning faol a'zosiga aylanadi, ertaga u quradigan oila ham mustahkam bo'ladi. Bu mening eng katta orzuim va tilagimdir, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, dasturda kollej bitiruvchilarini, birinchi navbatda, qizlarimizni ish bilan ta'minlash masalasini dolzarb vazifa tariqasida ko'rishimiz darkor.

Shu borada o'zining kichik bir xususiy ishini, o'z biznesini tashkil etishga intilayotgan yoshlarimizga imtiyozli kreditlar ajratish, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari berish borasidagi ishlarimizning ko'lamini kengaytirish ham diqqatimiz markazida bo'lishi kerak.

Shu bilan birga, aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sanitariya-gigiyena sohasidagi ishlarni yanada

kuchaytirish, homilador ayollarni asrab-avaylash, yosh onalar va bolalarni talab darajasida parvarish qilish, ularning ovqat ratsioni, uning sifati va kaloriyasi kabi masalalarga jiddiy e'tibor berish lozim. Qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, xolisona aytadigan bo'lsak, afsuski, ko'pgina xondonlarimizda bu o'ta muhim masalalarga yetarlicha ahamiyat bermaymiz.

Haqiqatan ham, bolaga e'tibor bo'lajak onaga e'tibor qaratishdan boshlanishi kerak. Chunki homilador ayolning ruhiy-fiziologik holati, barcha his-tuyg'ulari, kayfiyati ona vujudi orqali bolaga o'tadi. Bundan xulosa shuki, bolani e'zozlash uchun avvalo onani e'zozlash kerak. Bu borada barchamiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz zarur.

Bu haqda gapirganda, bir qarashda arzimas narsadek tuyuladigan, lekin hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan muhim bir masalaga alohida to'xtalish joiz. Ya'ni, oilalarimizda sog'lom ma'naviy muhitni tashkil qilish, xususan, er-xotin, ota-onas va farzandlar, qaynona va kelin o'rtaсидаги munosabatlar, qo'shnichilik munosabatlarining o'zaro hurmat, mehr-oqibat ruhida bo'lishiga erishish – bu yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik va ahillikni yanada mustahkamlashning eng muhim sharti ekanini doimo esda tutishimizni istardim.

Buning uchun hammamiz birligida ish olib borishimiz, xususan, joylarda hokimiyat idoralari bilan mahalla, xotin-qizlar, nuroniyalar, yoshlar tashkilotlari o'rtaсидада hamkorlikni yanada kuchaytirish, el-yurt orasida obro' qozongan hurmatli insonlar, muhtaram kayvonilarni bu ishlarga keng jalb etish ayni muddao bo'lur edi.

Aziz vatandoshlar!

Biz yangi – 2016-yilga mana shunday ezgu va olijanob niyatlar bilan qadam qo'yayotgan ekanmiz, davlatimiz va jamiyatimizning qudrati va salohiyatini, butun borlig'imiz va kuch-

g‘ayratimizni shu yo‘lda safarbar etish uchun barcha sharoit va imkoniyatlarga egamiz.

Eng muhimi, «**Ona va bola sog‘lom bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, jamiyat mustahkam bo‘ladi**» degan hayotbaxsh g‘oya har bir yurtdoshimizning qalbiga chuqur kirib borishi, ana shu ulug‘ ishga munosib hissa qo‘shish barchamizning muqaddas vazifamizga aylanishi lozim.

Ishonchim komil, ko‘pni ko‘rgan xalqimizning mehnati, aql-zakovati va azm-u shijoati bilan Sog‘lom ona va bola yili bo‘yicha belgilab olgan maqsad va vazifalarni al-batta ro‘yobga chiqarishga erishamiz, yangi yilimiz yakuniga yetayotgan 2015-yildan zivod bo‘lsa bo‘ladiki, aslo kam bo‘lmaydi, inshoollo.

Sizlarni Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 23 yilligi bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Rasmiy nashr

Islom Abdug‘aniyevich Karimov

**ASOSIY VAZIFAMIZ – JAMIYATIMIZNI
ISLOH ETISH VA DEMOKRATLASHTIRISH,
MAMLAKATIMIZNI MODERNIZATSIYA
QILISH JARAYONLARINI YANGI BOSQICHGA
KO‘TARISHDAN IBORAT**

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul
qilinganining 23 yilligiga bag‘ishlangan tantanali
marosimdagি ma’ruza*

2015-yil 5-dekabr

*Nashr uchun mas’ul I. Ahmedov
Badiiy muharrir Sh. Xodjayev
Texnik muharrir T. Xaritonova
Kichik muharrir D. Xolmatova
Musahhihlар: G. Aripova, D. Xusanova
Kompyuterda tayyorlovchi F. Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158.14.08.2009.
Bosishga 2015-yil 30-dekabrda ruxsat etildi.

Offset qog'oz. Bichimi 60x90 1/16.
«Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 2,5.
Nashr tabog'i 2,32. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 15-930.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz